

ISLOM MOLIYA TIZIMIDA SOLIQQA TORTISHNING AN'ANAVIY IQTISODIYOTDAGI SOLIQLARDAN FARQLI JIHATLARI

Yoqubjonov Javohir Farhodjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islom iqtisodiyoti va moliyasi mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya. Islom moliyasida soliqlar tushunchasi azaldan an'anaviy moliyadagi soliqlar bilan tubdan farq qilgan. Ushbu maqolada, islomda soliqlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini, an'anaviy soliqlar bilan solishtirib, tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: zakot, jizya, doriba, xaroj, daromad solig'i.

Annotation. The concept of taxation in Islamic finance has fundamentally differed from that of conventional finance since its inception. This article analyzes the nature and socio-economic significance of taxes in Islam, comparing them with conventional taxation systems.

Keywords: zakat, jizya, doriba, kharaj, income tax.

Islom dinida barcha mulk Allohnikidir. Shu nuqtai nazardan islom dinida mulkning taqsimlanishi, soliqlar va boshqa to'lovlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy masalalar hamdir.

Soliqlar islomning ilk davrlaridan beri mavjud; Madinada payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) jizya deb nomlangan soliq tizimini joriy qilgan va xaroj esa xalifa Umar bin al-Xattob davrida joriy etilgan¹. Jizya deganda Madinada payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hukmronligi davridan beri Qur'on va Sunnat asosida qo'llaniladigan Ahli Zimma (Islom davlati fuqarosi bo'lgan boshqa din vakillari yoki dinsizlar) tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan soliq nazarda tutilgan.² Jizya Muhammad payg'ambar davridan keyin xalifalar tomonidan ham qo'llanilgan.

Xaroj Umar ibn al-Xattobning g'oyasi bo'lib, boshida bir qancha odamlar bu baytul molning asosiy daromad manbasiga aylanganiga taxmin qilishgan.³ Jizya ham, Xaroj ham islomning dastlabki davrida musulmonlar uchun eng katta daromad manbalari edi.

Islom soliqdan tashqari, zakot deb nomlangan majburiy to'lovni ham targ'ib qiladi. Zakot soliqdan ham muhimroqdir, chunki u Qur'on oyatlari va hadislar asosida

¹ Misri A. & Abdul M., Historical development of tax during the early Islamic period: Jizyah and kharaj. P. 1.

² Misri A. & Abdul M., Historical development of tax during the early Islamic period: Jizyah and kharaj. P. 2.

³ Misri A. & Abdul M., Historical development of tax during the early Islamic period: Jizyah and kharaj. P. 2.

belgilab qo'yilgan.⁴ Yusuf Qardaviy zakot farzligi doimiy va barqaror ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha dunyoda islom va musulmonlar bor ekan, zakot berilishi shartdir.

Zakot an'anaviy soliqlardan farqli o'laroq, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:⁵

- U islom dinining ustunidir, shuning uchun uni to'lovchi oluvchiga hech qanday yaxshilik qilmaydi, balki Alloh oldidagi majburiyatini bajaradi;

- Garchi u davlat tomonidan qabul qilingan boshqa soliqlarga agentlar orqali yig'ilishi, bajarilmasa jazolanishi kabi xususiyatlari bilan o'xshash bo'lsa-da, zakot musulmonlarning oldidagi diniy majburiyati ham bo'lgani bois soliqlardan kuchliroq instrument hisoblanadi, musulmonlarda bu borada vijdon jihatdan zakotdan qochish masalalari kamdan kam uchraydi.

- Zakot muayyan sabablarga ko'ra foydalanish uchun mo'ljallangan.

- Ijtimoiy ta'minotni nuqtai nazaridan, bu nafaqat kambag'al va qiynalgan kishilarga, balki islom diniga yangi kirib kelganlar va to'lay olmayotgan qarzdorlar kabi qiyin vaziyatda qolganlarga ham yordam beradi.

Zakot o'zining ma'naviy-axloqiy jihatlaridan tashqari, islom dinining ustuni sifatida quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni amalga oshirish uchun ham xizmat qiladi:

1. Zakot boylik taqsimlanishi orqali iqtisodiy o'sish va mahsuldorlikka ko'maklashish, ya'ni zakot iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, u kambag'al va muhtojlarga iqtisodiy rivojlanish imkonini yoki davlatga zakot fondini daromad keltiradigan biznes tarmoqlariga yo'naltirishga yordam berish; Muhtoj va ishsizlar uchun ish o'rinlarini yaratish imkonini yaratish;

2. Kambag'allarning iste'mol talabini qondirish va shu bilan ularning tovarlar va xizmatlarga sotib olish qobiliyatini oshirish;

3. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga olib keladigan bo'sh pullarni yig'ish tendentsiyasini nazorat qilish;

4. Ta'lim, tibbiy yordam, ijtimoiy ta'minot va kam ta'minlanganlar mahsuldorligini yana oshirish kabi loyihalarni moliyalashtirish;

5. Boylikning teng taqsimlanishini shu vositalar orqali ta'minlash;

Islom zakotni majburiy qilish orqali kambag'allar va boylar turmush darajasi o'rtasida kata tafovutning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaydi va shu bilan kapitalistik jamiyatni qiynayotgan eng og'ir muammodan saqlaydi.

Shunga ko'ra, iqtisodiy nuqtai nazardan bu maqsadlar zakotni inson qalbini xudbinlik va baxillikdan poklashdan tashqari, asosiy ibodat sifatida ifodalagan bo'lsa,

⁴ Misri A. & Abdul M., Historical development of tax during the early Islamic period: Jizyah and kharaj. P. 3.

⁵ Drs. Mek Wok Mahmud and Sayed Sikandar Shah (Haneef), Studies in Islam and the Middle East, The Use of Zakat Revenue in Islamic Financing: Jurisprudential Debate and Practical Feasibility. P. 3.

musulmon mamlakatlarning moliya tizimida samarali chora sifatida xizmat qilish uchun mo'ljallangan.⁶ Makroiqtisodiy darajada u boyliklarni to'g'ridan-to'g'ri to'lash yoki ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash orqali boylardan zaif va kambag'allarga qayta taqsimlanishiga yordam beradi.⁷

Zakat musulmonlarga quyidagi umumiy shartlarga ko'ra majburiy bo'ladi:⁸

1. Kishi o'zining zakotiga to'lanadigan boyliklarga to'liq egalik qilsa va ustidan nazorat qilsa.

2. Kishi ishlab ko'payuvchi mulkga egalik qilsa (klassik huquqshunoslar ta'rifiga ko'ra "o'sib boruvchi mulk" deb nomlanadi); Agar boylik o'z-o'zidan ko'paysa yoki daromad keltirsa va nisobga yetsa;

3. Kishi o'zining asosiy ehtiyojlaridan (yashashidan) ortiq bo'lgan, nisobga yetgan boylikka ega bo'lsa; Islom fiqhida zakot berilishi uchun barcha zakot beriladigan boyliklar ma'lum miqdorga yetsa; Masalan, bo'sh turgan naqd pul uchun nisob 85 gramm oltin qiymatini tashkil qiladi.

4. Kishi bir yil davomida shu miqdordagi pulga egalik qilsa zakot berishi farz bo'ladi;

Payg'ambar (s.a.v.) o'z davrida daromad manbalarini tashkil etuvchi oltita umumiy boylik turi bo'yicha zakot deb belgilagan.⁹ Ular metallar (oltin va kumush), qishloq xo'jaligi ekinlari (bug'doy, makkajo'xori, xurmo va uzum), xazina, chorva mollari (tuya, qo'y va sigir) va savdo tovarlari edi. Keyinchalik yuqoridagilarga yana bir qator tovar va boyliklar ham qo'shildi. Bugungi kunga kelib, zakot beriladigan boyliklar qishloq xo'jaligi, hayvonlar, suv osti boyliklari, yer osti boyliklari, sanoat boyliklari, naqd pullar, savdo aktivlari va aksiyalar, obligatsiyalar (sukuk) va boshqalardan iborat.¹⁰

Biroq Shayx Mahmud Shaltutning fikricha soliqlarni zakot hisoblab bo'lmaydi.¹¹ Uning fikricha, zakot moliyaviy ibodat bo'lganligi sababli, u soliqlarga o'xshamaydi. Soliq va zakot o'rtasida ma'lum o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ular o'rtasidagi farqlar ancha katta. Soliq va zakot o'zlarining qonunchilik manbalari, nazariy asoslari, maqsadlari, stavkalari, ozod qilishlari va xarajatlari bilan farqlanadi.

⁶ Al-Zuhayli, al-Fiqh al-Islami wa Adillatuhu vol.2, P.372.

⁷ Abu Al-Hasan Sadeq, A Survey of The Institution of Zakah: Issues, Theories and Administration (Riyad: Islamic Development Bank Islamic Research and Training Institute, 2004), Discussion Paper II, pp.61-17, and Habib Ahmed, Zakah and Awqaf in Poverty Alleviation (Jeddah: Islamic Development Bank Islamic Research and Training Institute, 2004), Discussion Paper 8, P.70.

⁸ Drs. Mek Wok Mahmud and Sayed Sikandar Shah (Haneef), Studies in Islam and the Middle East, The Use of Zakat Revenue in Islamic Financing: Jurisprudential Debate and Practical Feasibility. P. 5.

⁹ Drs. Mek Wok Mahmud and Sayed Sikandar Shah (Haneef), Studies in Islam and the Middle East, The Use of Zakat Revenue in Islamic Financing: Jurisprudential Debate and Practical Feasibility. P. 5.

¹⁰ Zakat, Tax and Customs Authority, Zakat jurisprudence of individuals – a guideline.

¹¹ al-Qaradawi, Yusuf (1999) Fiqh az-Zakah: A Comparative Study-The Rules, Regulations and Philosophy of Zakah in the Light of the Qur'an and Sunna, Dar Al Taqwa Ltd., London. P. 678.

Terminologiya jihatdan soliq arab tilida “ad-doriba” nomi bilan tanilgan bo‘lib, u daraba, yadribu, darbon so‘zidan kelib chiqqan. Ad-doriba majburlash, belgilash, aniqlash, tushuntirish yoki yuklash va boshqa ma’nolarni bildiradi.¹²

Islomda soliqdan qochish yoki bo‘yin tovlash qat’iyan qoralanadi.¹³ Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash nafaqat iqtisodiyot uchun zararli, balki islomda qat’iy rioya qilinadigan muhtojlarga yordam berish konsepsiyasini ham buzadi.¹⁴ Shuning uchun islomning soliqdarga oid etnik qoidalarini jamiyat va davlatga daromad keltirish uchun muhimdir.

Ba’zi islomshunos olimlar soliqlar Alloh taolo musulmonlardan talab qilinadigan har xil ehtiyoj va xarajatlarni qondirish uchun farz qilgan mulkdir deb ta’kidlaydilar.¹⁵ Qardaviy ilgari surgan ta’rifda shariatga ko‘ra soliqning beshta hal qiluvchi elementi mavjud, xususan:¹⁶

- Alloh taolo tomonidan buyurilganligi;
- Obyekt mulkdir; Subyektlar badavlat musulmonlardir;
- Maqsad - davlat va jamiyat ehtiyojlarini moliyalashtirish;
- Hukumat tomonidan hal qilinishi kerak bo‘lgan favqulodda vaziyat tufayli amalga oshirilishi;

Islom shariatida soliq to‘g‘risida bir qancha qoidalar mavjud bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida uni an’anaviy tizimdagi soliqlardan ajratib turadi, xususan:

- Avval soliqlar abadiy bo‘lmagan, faqatgina baytul-molda mablag‘ qolmagan vaziyatlardagina soliqlar yig‘ilgan.¹⁷ Baytul mol to‘lganda soliq majburiyati bekor qilinishi mumkin bo‘lgan. An’anaviy soliqlar esa doimiydir.
- Doriba faqat ehtiyojlar uchun yig‘ilgan, bu badavlat musulmonlar uchun farz bo‘lgan. An’anaviy soliqlar esa barcha fuqarolar uchun mo‘ljallangan.
- Doriba faqat musulmonlardan olingan chunki u faqat musulmonlar ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatilgan.

Qadimda quyidagi olti yo‘nalishlar uchun bayt ul-moldan mablag‘ sarflangan:¹⁸

1. Jihod uchun sarf-xarajatlar va u uchun zarur bo‘lgan narsalar;
2. Harbiy sanoatga sarflangan xarajatlar;
3. Kambag‘al, miskin va yo‘lovchilarga nafaqa qilish;

¹² Darvina M., Safrudin H., Muhammad R., Kawanua International Journal of Multicultural Studies, Zakat and Taxes in Islamic Overview: in terms of Benefit. Pp. 66-75.

¹³ Benk, S., McGee, R. W., & Yiizbafi, B. (2015), Journal for the Study of Religions and Ideologies, How religions affect attitudes toward ethics of tax evasion? A Comparative and demographic analysis. 14(41), 202–223.

¹⁴ Benk, S., McGee, R. W., & Yiizbafi, B. (2015), Journal for the Study of Religions and Ideologies, How religions affect attitudes toward ethics of tax evasion? A Comparative and demographic analysis. 14(41), 202–223.

¹⁵ Darvina M., Safrudin H., Muhammad R., Kawanua International Journal of Multicultural Studies, Zakat and Taxes in Islamic Overview: in terms of Benefit. Pp. 66-75.

¹⁶ Qaradawi, Y., Harun, S., Hafidhuddin, D., & Hasanuddin. (2007). Hukum zakat: Studi komparatif mengenai status dan filsafat zakat berdasarkan Quran dan Hadis. Litera Antar Nusa. P

¹⁷ Darvina M., Safrudin H., Muhammad R., Kawanua International Journal of Multicultural Studies, Zakat and Taxes in Islamic Overview: in terms of Benefit. P. 69.

¹⁸ Taxation in Islam - a translation of Al-Amwal fi Dowlat Al-Khilafah by Abdul-Qadeem Zalloom.

4. Ummat manfaati uchun xizmat qiluvchi harbiylar, davlat xizmatchilari, qozilar, o'qituvchilar va shunga o'xshashlarning maoshlari kabi xarajatlar;
5. Ummatga xizmat ko'rsatish va g'amxo'rlik qilish shaklidagi xarajatlar;
6. Ochlik, zilzila, suv toshqini va dushman hujumlari kabi favqulodda vaziyatlarga sarflangan xarajatlar;

Agar bayt ul-molda yetarli mablag' bo'lmasa, xarajatlarni qoplash uchun musulmonlardan soliqlar undirilgan.

Muhammad (s.a.v.) davrlarida davlat daromadlari manbalariga quyidagilar kirgan:

- Zakot, ya'ni mol-mulki bo'lgan har bir musulmonning nisobiga yetishi bilan farz bo'lgan. Bundan tashqari, mulk egasi o'zining zakotini to'lash va uni muhtojlarga berish huquqiga ega va hukmdor ham mol-mulki bo'lgan musulmonlardan zakotni olish huquqiga ega bo'lgan. Zakot yonlangan amaldorlar (amil) tomonidan yig'ilgan.

- Faroiz mutaxassislari orasida ikki xil fikr mavjud¹⁹. Birinchi fikrga binoan meros merosxo'rlarning har biriga qaytarilishi kerak - ularning marhumga yaqinligi e'tiborga olinishi lozim. Ikkinchi fikrda aytilishicha, bo'linmagan/ortiqcha bo'lmagan barcha moddiy baytul mol/davlat g'aznasiga qaytariladi. Masalan, kimdir vafot etsa va merosxo'r beva bo'lsa, beva ayolga huquqning 1/6 qismini oladi, qolganini baytul molga qaytarilishi kerak bo'lgan.

- Jizya - bu o'z xavfsizligini kafolatlash uchun islomiy mamlakatda yashashga ruxsat berilgan boshqa din vakillaridan olingan o'lpon.

- G'anima urush bo'lganda musulmonlar tomonidan boshqariladigan boshqa din vakillarining mulki bo'lgan.

- Xaroj - islomda yer solig'i sifatida ham tanilgan.

Rashidun va Umaviylar xalifaliklari davrida (milodiy 7 - 8-asrlar) islomning adolat, tenglik va ijtimoiy farovonlik tamoyillariga asoslangan soliq siyosati o'rnatilgan.²⁰

Islom imperiyasining kengayishi bilan soliq tizimi turli aholi, mintaqalar va iqtisodiy faoliyatni qamrab olish bilan rivojlandi.

Islom ulamolari soliqqa tortish, shariat tamoyillariga rioya etish va soliq yuklarini adolatli taqsimlashni ta'minlash bo'yicha batafsil huquqiy hukmlar (fatvolar) ishlab chiqdilar. Masalan, Imom Malik islom fiqhining molikiy mazhabi asoschisi, islom huquqining turli jihatlari, jumladan, soliqqa tortish bo'yicha hukmlarni o'z ichiga olgan "Muvatta" asari muallifi. Uning fatvolarida zakot va soliqning boshqa

¹⁹ Dr. Anwar. (2017). The Law Of Productive Zakat In Islam And Its Impact Towards Economy. P. 12.

²⁰ Marshall G.S. Hodgson, The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization, vol. 1: The Classical Age of Islam, University of Chicago Press, Pp. 19-74.

turlarini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.²¹

Shofi'iylik islom fiqhi mazhabining asoschisi Imom ash-Shofi'iy soliqqa tortishni tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar haqida ko'p yozgan. Uning fatvolarida zakot taqsimoti, davlat daromadlarini boshqarish kabi masalalar ko'rib chiqilgani haqida ma'lumotlar berilgan.

Abbosiylar, Usmoniylar va boshqa islom imperiyalari davrida soliqqa tortish davlat moliyasining hal qiluvchi jihat bo'lib, o'zgaruvchan iqtisodiy va siyosiy islohotlarga moslashgan.

Zamonaviy iqtisodiyotda islom mamlakatlaridagi soliqqa tortish tizimlari zakot kabi soliqlarni zamonaviy soliq shakllari – daromad solig'i, QQS bilan birlashtiradi.²²

Bugungi kunga kelib ham tenglik, adolat va nohaqlikdan qochish tamoyillari musulmon davlatlari soliqlarining zamonaviy talqinlarida markaziy o'rinni egallab kelmoqda.²³

2-jadval.

An'anaviy va islom moliyasidagi soliqlarning farqli jihatlari		
	An'anaviy soliqlar	
	Qadimgi sivilizatsiyalar (masalan, Misr, Gretsiya, Rim)	
		Ijtimoiy adolat, boylik taqsimoti va diniy majburiyatlar tamoyillariga asoslanadi
	Turli xil: daromad solig'i, realizatsiyaga soslangan soliqlar, mulk solig'i va boshqalar	Zakot, jizya, mulk solig'i va xaroj
	Daromad, istemol va mol-mulk	
		Mahalliy nazorat organlari yoki diniy ulamolar
	Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar va amaliyotlar bilan asrlar davomida sezilarli darajada rivojlandi	Prinsiplarga o'zgarmagan, lekin yig'im usullari rivojlangan

²¹ Ibn Qayyim al-Jawziyya, Zad al-Ma'ad, trnsd by Dr. Abdul Rahman ibn Muhammad ibn Qasim, Dar Ibn Hazm, Beirut. Pp. 200-215.

²² Mohamed C., Taxing Identity: Fiscal Policy and Conversions in Early Islam, 2018. P. 1.

²³ Mohamed C., Taxing Identity: Fiscal Policy and Conversions in Early Islam, 2018. P. 1.

	Hokimiyat strukturasi, infratuzilmasi va jamoat xavfsizligi uchun	Ijtimoiy xizmatlar, boylikning adolatli taqsimoti muhtojlarga yordam
Tarixdagi eng asosiy o'zgarishlar	- Qadimgi Misrda: ekinlar va mehnatga soliq	- Ilk xalifaliklar: Zakot va boshqa soliqlarning tashkil etilishi
	- Rim imperiyasi: yer va savdo soliqlari	- Usmoniylar imperiyasi: kodlashtirish va tizimli yig'ish
	- O'rta asrlar: Feodal soliqlari va yig'implari	- Zamonaviy davr: turli islom mamlakatlarida iqtisodiy moslashish
	- Zamonaviy davr: daromad va korporativ soliqlar	
	Ko'pincha daromad darajasiga, tovarlar turlariga va boshqalarga bog'liq.	Masalan, daromadi nisobga yetmaganlar zakotdan ozod qilinadi
	Jarimalar, foizlar va bo'yin tovlash uchun qonuniy oqibatlar	Diniy va ijtimoiy jazolar, ayrim hollarda esa qonuniy jazolar
	Boylikning qayta taqsimlanishiga olib kelishi mumkin, lekin progressiv bo'lmasa, nomutanosibliklarga	

Xulosa qilib aytganda, islomda soliqqa tortish chuqur tarixiy va diniy asosga ega bo'lib, majburiy xayriya (zakot) va davlat tomonidan olinadigan soliqlarni (Jizya, xaroj, ushr) o'z ichiga oladi. Bu soliqlar iqtisodiy adolat, boylik taqsimoti va ijtimoiy farovonlik tamoyillarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, asrlar davomida islom jamiyatlarida soliq solish amaliyotiga ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Misri A. & Abdul M., Historical development of tax during the early Islamic period: Jizyah and kharaj.
2. Drs. Mek Wok Mahmud and Sayed Sikandar Shah (Haneef), Studies in Islam and the Middle East, The Use of Zakat Revenue in Islamic Financing: Jurisprudential Debate and Practical Feasibility.
3. Al-Zuhayli, al-Fiqh al-Islami wa Adillatuhu vol.2, P.372.
4. Abu Al-Hasan Sadeq, A Survey of The Institution of Zakah: Issues, Theories and Administration (Riyad: Islamic

5. Development Bank Islamic Research and Training Institute, 2004), Discussion Paper II, pp.61-17, and Habib Ahmed, Zakah and Awqaf in Poverty Alleviation (Jeddah: Islamic Development Bank Islamic Research and Training Institute, 2004), Discussion Paper 8.
6. Drs. Mek Wok Mahmud and Sayed Sikandar Shah (Haneef), Studies in Islam and the Middle East, The Use of Zakat Revenue in Islamic Financing: Jurisprudential Debate and Practical Feasibility.
7. Drs. Mek Wok Mahmud and Sayed Sikandar Shah (Haneef), Studies in Islam and the Middle East, The Use of Zakat Revenue in Islamic Financing: Jurisprudential Debate and Practical Feasibility.
8. Zakat, Tax and Customs Authority, Zakat jurisprudence of individuals – a guideline.
9. al-Qaradawi, Yusuf (1999) Fiqh az-Zakah: A Comparative Study-The Rules, Regulations and Philosophy of Zakah in the Light of the Qur'an and Sunna, Dar Al Taqwa Ltd., London.
10. Darvina M., Safrudin H., Muhammad R., Kawanua International Journal of Multicultural Studies, Zakat and Taxes in Islamic Overview: in terms of Benefit.
11. Benk, S., McGee, R. W., & Yiizbafi, B. (2015), Journal for the Study of Religions and Ideologies, How religions affect attitudes toward ethics of tax evasion? A Comparative and demographic analysis. 14(41).
12. Darvina M., Safrudin H., Muhammad R., Kawanua International Journal of Multicultural Studies, Zakat and Taxes in Islamic Overview: in terms of Benefit.
13. Qaradawi, Y., Harun, S., Hafidhuddin, D., & Hasanuddin. (2007). Hukum zakat: Studi komparatif mengenai status dan filsafat zakat berdasarkan Quran dan Hadis. Litera Antar Nusa.
14. Taxation in Islam - a translation of Al-Amwal fi Dowlat Al-Khilafah by Abdul-Qadeem Zalloom.
15. Dr. Anwar. (2017). The Law Of Productive Zakat In Islam And Its Impact Towards Economy.
16. Marshall G.S. Hodgson, The Venture of Islam: Conscience and History in a World Civilization, vol. 1: The Classical Age of Islam, University of Chicago Press.
17. Ibn Qayyim al-Jawziyya, Zad al-Ma'ad, trnsl by Dr. Abdul Rahman ibn Muhammad ibn Qasim, Dar Ibn Hazm, Beirut.
18. Mohamed C., Taxing Identity: Fiscal Policy and Conversions in Early Islam, 2018.